

Saytimiz: baxtiyor.uz

Telegramdagi kanalimiz: [@baxtiyoruz](https://t.me/baxtiyoruz)

**SAYTIMIZ VA KANALIMIZ MEHMONI BO'LIB
O'ZINGIZ IZLAGAN NARSANI TOPISHINGIZGA
ISHONAMIZ.**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI
XALQ TA'LIM BOSHQARMASI**

To'raqo'rg'on tuman

**Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik
ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli
4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

TURSUNMETOVA MUHABBATNING

“DARS MUQADDAS”, “O’RGAN-O’RGAT”

tavsiyalari asosida o’qish fanidan

yozgan bir soatlik

Dars ishlanmasi

Ushbu dars ishlanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib 3-sinfda "Yangi yil archasiga" mavzusini o'tishda ijodiy foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Tuzuvchi:

M.Tursunmetova 4-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Taqrizchilar:

N.Payziboyeva - Viloyat xalq ta'limi boshlang'ich sinflar metodisti

M.Akbarova - Tuman xalq ta'limi bo'limi boshlang'ich sinflar metodisti

N.Rasulova- 4-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Dars ishlanma tuman xalq ta'limi bo'limi metodika kengashining " ____ " _____ yildagi _____ - sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.


KIRISH

Agarki dunyo imoratlari ichida
eng ulug`i maktab bo`lsa,
kasblarning ichida eng sharaflisi
o`qituvchilik va murabbiylikdir....

I.Karimov

Vatanimiz istiqloli tufayli o`z taqdirimizni o`z
qo`limiz bilan yaratish, o`z salohiyatimizni har
tomonlama namoyon etish, o`zimiz tanlagan yo`ldan
maqsad sari og`ushmay borish imkoniyatiga ega
bo`ldik.

Prezidentimizning 2006-yilgi «Milliy g`oya
targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini
oshirish to`g`risida»gi qarori vatanimiz
mustaqilligining ma`naviy asoslarini mustahkamlash,



milliy qadriyatlarimiz, an`ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz yosh avlod qalbi va ongiga, ona yurtga, istiqlolga sadoqat tuyg`ularini singdirish hamda ularda insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, fuqarolarimizni milliy tafakkur va sog`lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli, o`z fikriga ega bo`lishga, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, bu borada ma`naviy-ma`rifiy targ`ibot ishlarini, hayotiy ta`sirchanlikni ta`minlash, uni milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg`unligi asosida tashkil etishga qaratilgan.

Bilim berish jaroyonini me`yorlashtirish maqsadida, 1999-yil 16-avgustda Davlat Ta`lim Standarti qabul qilingan. Shu asosida biz pedagoglar kelajak avlodga ta`lim-tarbiya bermoqdamiz.

Mavzu: Yangi yil archasiga.

Ta'limiy maqsad: O'tgan darslarda olingan bilimlarini mustaxkamlash jarayonida berilgan topshiriqlarni og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish. Ifodali ongli va diqqat bilan o'qish. Tabiat, matematika fanlariga boglash.

Tarbiyaviy maqsad:

Yashil olam boyliklarini asrash, tevarak – atrofni muxofaza qilis, qushlar va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, o'zaro hamjixatlik va do'stona munosabatda bo'lishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi mashqlar:

Dars jarayonida o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, ongli, ifodali va tez o'qish, bildirilgan fikrni to'g'ri idrok etish, mustaqil fikrlash.

Dars tiri: No'anaviy.

Darsning uslubi:

Suxbat, savol –javob "Aqli xujum" va "Klaster usuli".

Darsning jihozi:

Mavzuga oid rasmlar, archa va archa bezaklari, yong'oq mevasi, kamyuter, proektor, tarqatmalar, ko'rgazmalar, mavzuga oid clayd.

Darsning fanlaroro uzviyligi:

Ona tili, matematika, rasm, atrofimizdagi olam, odobnoma

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

O`qituvchi: Assalomu- alaykum

O`quvchilar: Va alaykum assalom

Aziz ustoz muallim

Shay turibmiz biz hozir

Sizdan olishga ta'lim.

O`qituvchi: O`quvchilar hamma sog`- salomat keldimi? Bugungi navbatchi kim?

- Maxliyoxon, Murodjon

O`qituvchi: Raxmat, bolajonlar. Bugungi darsimiz shiori:

Oz-oz o`rganib dono bo`lur

Qatra - qatra yig`ilib daryo bo`lur

(Slayd orqali ko`rsatish.)

Darsni boshlashdan oldin darsni “oltin qoidasi” bilan sizlarni tanishtirib o`taman.



(oltin qoidani slaydini qo'yiladi.)

O'qituvchi: O'quvchilar bugungi darsimizga mehmonlar qatorida "Qorqiz" ham tashrif buyurgan Hozir davramizga qorqizni barabar chaqiramiz.

Oquvchilar: Qorqiz, qorqiz, qorqiz.

O'qituvchi: Xush kelibsiz, qorqiz qizim.

Qorqiz: Raxmat. Sizlar uchun ajoyibsovg'alar olib keldim. Bugungi darsda yaxshi va faol qatnashgan o'quvchilarga o'z sovg'alarimni ulashibturaman.

O'qituvchi: O'quvchilar bilan siyosiy suxbat olib boorish.

-O'quvchilar Vatanimiz qanday nom bilan ataladi?

O'quvchilar: O'zbekiston.

O'qituvchi: Viloyatimiz

O'quvchilar: Namangan.

O`qituvchi: Qaysi tumanda yashaymiz?

O`quvchilar: To`raqo`rg`on.

O`quvchilar: O`qituvchi: Biz o`qiydigan ilm maskani?

O`quvchilar: 4- umumiy ta`lim maktabi

O`qituvchi: Sinfimiz?

O`quvchilar: 3- B sinf

O`qituvchi: Hozir qaysi fasl?

O`quvchilar: O`lkamizda qish fasli.

O`qituvchi: Qish fasliga qaysi oylar kiradi?

O`quvchilar: Dekabr, yanvar, fevral.

O`qituvchi: Qishfasli 3 oydan iborat bo`lib, dekabr oyi 31 kun, yanvar oyi 31 kun, febfal oyi 28 kundan iborat ekan.

O`quvchi: - 90 kun.

O`qituvchi: - 90 kun juft sonmi, toq sonmi?

O`quvchi: Toq son.

O`qituvchi: 90 sonida nechta o`nlik, nechta birlik bor?

O`quvchi: -9 ta o`nlik, 90 ta birlik.

O`qituvchi: - Bu faslda o'lkamizga qaysi qushlar uchib keladi?

O'quvchi; Qarg'a.(Qarg'a slaydini qo'yish)

O`qituvchi: Qaysi qushlar o'lkamizda qishlaydi?

O'quvchi: -chumchuq, musicha, mayna, chittak.

(qushlar slaydini qo'yish)

O'qituvchi: Qarg'a va xakkani engb sevimli ozuqasi nima?

O'quvchi: -yong'oq mevasi.

O'quvchilarga yong'oq mevasi haqida ma'lumot berish.

- yong'oq mevasi, mevalar ichida eng serrhosil va inson salomatligi uchun juda foydasi katta. Yong'oq daraxti suvsizlakka ham, sovuqqa ham chidamlidir. Uning mevasi tarkibida vitamin va oqsil va yog'lar mavjud.

O'quvchilar shu ma'lumotlarni berish orqali topishmoqli tarqatmalarni berish.

1. Qoshaloq tavoq

Ichi tola yog'. (yong'oq)

2. Chaqolmaysan tezda uni,
qattiq po'chog'i chaqsang mag'zi
mazali, yog'dir o'chog'i

(yong'oq)

3. Dum – dumaloq cho'tir tosh,

ichi to'la moyli osh (yong'oq)

4. Miya kabishaklimbor

boshim to'la aqlim bor (yong'oq)

O'quvchilar berilgan tarqatmani o'qib, javobini topib, archa bezagi sifatida arcaga ilishadi

Qorqizni sovg'asidan olishadi.

O'tgan mavzuni mustahkamlash:

Mana o'quvchilar endi sizlar bilan o'tgan darsimizni mustahkamlab olamiz.

(Qishki ob- havo haqidagi slaydni ko'rsatish)

Manitor orqali orqali ko'rinib turibdiki qish fasli juda ham sovuq bo'lar ekan.

- Qish ertagi bilan o'tgan darsimizda tanishgan edik. O'rmon hayvonlari qizil ishton, tulkiar, quyonlar, tipratikon qishning mana shunday nsovuq kunlarida bir- birlari bilan uchrashib qolishibdi.
- Bu ertakni saxna ko'rinishi orqaliyoritib beraman.
- Rahmat aziz bolajonlar!

- Qorqiz bugungi saxna ko'rinishidaishtirok etgan o'quvchilarga o'z sovg'angizdan berib chiqing!

Yangi mavzu: Yangi yil archasiga.

Bugungi yangi mavzuyimiz ham mana shu qish faslida nishonlanadigan“Yangi yil archasida”mavzusidir.

D. Kamoljonova

Yangi yil archasiga

Bo`ylari shiftga yetgan,
Igna bargli, ko`k archa
Zar-u marjonlar taqib,
Yasanishing o`zgacha.

Yangi yil bayramida
Qorboboni kutamiz
Qop orqalab kelsa gar,
Zavqqa to`lib ketamiz.

Kichkintoylar kuylashib,
Atrofingda aylanar.
Egningdagi chiroqlar,
Kech kirganda tovlanar.

Ko'rkam archa, ko'k archa,
Bayramda bosh qahramon.
Baland tog'lar oshib kel,
Uyimizga bo'l mehmon.


(slayd qo'yish)

Biz dekabr oyida eng muxim bo'lgan bayramlarni nishonlaymiz. Bular" Konstitutsiya" kuni, 31- dekabr "Yangi yil " bayramini, 14- yanvar" Vatan himoyachilari " kuni, 9- fevral "Alisher Navoiy" bobomizni tug'ulgan kunlarini hamda 14-fevral "Zahiriddin Muhammad Bobur" tavallud topgan kunlarini nishonlaymiz. Har yili 8-dekabr "Kanistitutsiya" bayrami kuni muhtaram prezidentimiz tomonidan yillarni yangi nom bilan nomlab kelmoqda .

Qani 2012-yil qanday yil deb e`lon qilindi?


-2012-yil "Mustahkam oila"yili

2013-yil qanday nomlandi?



-2013-yil “Obod turmush ”yili deb nomlandi.

Mana aziz o`quvchilar bizning mustahkam va obod vatanimizga mana shunday bayramlar yarashadi .Fasllar ichida bolalar uchun eng sevimlisi bu qish faslidir.



Manabu monitor orqali ko`rinib turibdiki bolalar qish faslida chana uchishadi, qor bo`ron o`ynashadi ,qorbobo yasashadi. Hamda “Yangi yil ”bayramini ham nishonlashadi.

Manabu manitor orqali bugungi mavzuimizni
o`qib beraman.

-O`quvchilarga to`rt qatordan qilib kitobdan
o`qitib chiqish.


Yangi mavzuni mustaxkamlash :

Qani yana kim yoddan “Qish”haqida “Yangi
yil ”haqida she`r aytib beradi.

Endi sinfimiz o`quvchilarining” Yangi yil”
raqsini tomosha qilamiz.

Rahmat aziz bolalar!

Endi qorqizning tarqatgan sovg`alarini olgan
o`quvchilarni baholaymiz.



Uyga vazifa: “ Yangi yil archasiga ” she’rini yod olish hamda shu mavzuga doir rasm chizib kelish.